“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Sanoat mulki obyektlarini majburiy litsenziyalash instituti

Yesemurat Kanyazov,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
direktori
e-mail: ekanyazov@gmail.com

Аннотация. Maqola Oʻzbekiston Respublikasi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonunining 11^1-moddasi (2024-yil 15-fevraldagiOʻRQ-908-son Qonun tahririda) bilan qonunchilikka kiritilgan sanoat mulki obyektlarini majburiy litsenziyalash tartibini tahlil qilishga bagʻishlangan. Ushbu norma qabul qilinishidan oldin majburiy litsenziya olish huquqi faqat deklarativ tarzda, uni amalga oshirishning protsessual mexanizmisiz mustahkamlangan edi; OʻRQ-908-son Qonun ushbu boʻshliqning bir qismini yopdi. Muallif koʻrsatadiki, joriy etilgan tartibning Oʻzbekiston JSTga qoʻshilishga tayyorgarlik koʻrayotganda moʻljal sifatida foydalanayotgan TRIPS bitimining 31-moddasi standartiga rasmiy muvofiqligi uning mazmunan samaradorligiga teng emas: ikkita zaif nuqta saqlanib qolmoqda, choʻzish imkoniyati boʻlmagan qat'iy ikki oylik shartnomaoldi muddati va patent egasiga toʻlanadigan mukofot miqdorini aniqlash metodikasining yoʻqligi. Germaniya amaliyoti (Germaniya Federal Adliya sudining Raltegravir ishi boʻyicha, X ZB 2/17, 2017-yil qarori) bilan qiyoslash asosida 11^1-moddaga aniq tuzatishlar taklif etiladi, jumladan mukofot miqdori yakuniy aniqlanguncha sanoat mulki obyektidan foydalanishga vaqtinchalik ruxsat berish mexanizmi.

Калит сўзлар. intellektual mulk; majburiy litsenziyalash; sanoat mulki; patent huquqi; TRIPS bitimi; qiyosiy huquqshunoslik.

Аннотация. Статья посвящена анализу процедуры принудительного лицензирования объектов промышленной собственности, введённой в законодательство Республики Узбекистан статьёй 11^1 Закона «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах» (в редакции Закона № ЗРУ-908 от 15 февраля 2024 года). До принятия этой нормы право на получение принудительной лицензии было закреплено лишь декларативно, без процедурного механизма его реализации; Закон № ЗРУ-908 закрыл эту часть пробела. Автор показывает, что формальное соответствие введённой процедуры стандарту статьи 31 Соглашения ТРИПС (которое Узбекистан использует в качестве ориентира при подготовке к вступлению в ВТО) не тождественно её содержательной эффективности: сохраняются два уязвимых места – жесткий двухмесячный преддоговорный срок без возможности продления и отсутствие методики определения размера вознаграждения патентообладателю. На основе

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

сопоставления с германской практикой (решение Федерального верховного суда Германии по делу "Raltegravir",X ZB 2/17, 2017 г.) предлагаются точечные поправки к статье 11[1], включая механизм выдачи временного (предварительного) разрешения на использование объекта промышленной собственности до окончательного определения размера вознаграждения.

Ключевые слова. интеллектуальная собственность, принудительное лицензирование, промышленная собственность, патентное право, соглашение ТРИПС, сравнительное правоведение.

Annotation. The article analyzes the procedure for the compulsory licensing of industrial property objects introduced into the legislation of the Republic of Uzbekistan by Article 11[1] of the Law "On Inventions, Utility Models and Industrial Designs" (as amended by Law No.LRU-908 of 15 February 2024). Before this provision was adopted, the right to a compulsory license existed only declaratively, without a procedural mechanism for its exercise; Law No.ЗРУ-908 closed this part of the gap. The author shows that the formal compliance of the newly introduced procedure with the standard set out in Article 31 of the TRIPS Agreement, which Uzbekistan uses as a benchmark while preparing for WTO accession, is not equivalent to its substantive effectiveness: two vulnerabilities remain, a rigid two-month pre-negotiation period with no possibility of extension, and the absence of a methodology for determining the amount of remuneration due to the patent holder. Drawing on German practice (the Federal Court of Justice decision in Raltegravir, X ZB 2/17, 2017), the article proposes targeted amendments to Article 11[1], including a mechanism for provisional authorization to use the object of industrial property pending the final determination of remuneration.

Keywords. intellectual property; compulsory licensing; industrial property; patent law; TRIPS Agreement; comparative law.

Bugun innovatsion rivojlanish, ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonida intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari kabi sanoat mulki obyektlariga bo'lgan huquqlarni samarali himoya qilish innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda huquq egalarining qonuniy manfaatlarini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, sanoat mulki obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning mavjudligi ayrim hollarda ushbu obyektlardan foydalanish imkoniyatlari va jamiyat manfaatlari o'rtasida muayyan huquqiy muvozanatni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur munosabatlarni tartibga solishda majburiy litsenziyalash instituti alohida o'rin tutadi. Ushbu institut qonunchilikda belgilangan muayyan shartlar va tartiblar asosida patent egasining roziligisiz sanoat mulki obyektidan foydalanishga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ruxsat berish imkoniyatini nazarda tutadi. Bunda, bir tomondan, patent egasining mutlaq huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ikkinchi tomondan esa, jamoat manfaatlari, iqtisodiy ehtiyojlar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash oʻrtasidagi muvozanatni saqlash masalasi yuzaga keladi. Shu sababli majburiy litsenziyalashni faqat patent egasining huquqlarini cheklovchi mexanizm sifatida emas, balki sanoat mulki sohasidagi huquqiy manfaatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiluvchi institut sifatida ham oʻrganish muhimdir.

Majburiy litsenziyalash institutining huquqiy mohiyati, uni qoʻllash asoslari va shartlari, tegishli subyektlarning huquq hamda majburiyatlari, shuningdek, mazkur mexanizmning samaradorligi masalalari ushbu institutni kompleks ilmiy-huquqiy tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, sanoat mulki obyektlaridan foydalanishga ruxsat berish bilan bogʻliq munosabatlarda huquq egasining manfaatlarini himoya qilish, litsenziya oluvchining huquqiy maqomini aniqlash va majburiy litsenziyalashning qonuniy chegaralarini belgilash muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, sanoat mulki obyektlarini majburiy litsenziyalash institutining mazmuni, huquqiy asoslari va qoʻllash mexanizmlarini oʻrganish intellektual mulk huquqini takomillashtirish bilan bogʻliq dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Majburiy litsenziyalash institutining huquqiy asoslarini tahlil qilish bilan bir qatorda, uning nazariy mohiyatini, patent egasining mutlaq huquqlari va jamoat manfaatlari oʻrtasidagi nisbatni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur institutga doir xorijiy va milliy olimlarning ilmiy qarashlarini oʻrganish, ularni qiyosiy tahlil qilish hamda amaldagi qonunchilik bilan bogʻliq holda baholash zarur.

Majburiy litsenziyalash instituti fuqarolik huquqining oʻziga xos vazifasini hal etadi: u patent egasining mutlaq huquqini jamoat manfaatlari yoʻlida cheklaydi, ya'ni agar patent egasi qonunda belgilangan muddat davomida uzrli sabablarsiz sanoat mulki obyektidan oʻzi foydalanmasa, uni ushbu obyektdan foydalanishga boshqa shaxsga yoʻl qoʻyishga majbur qiladi. Bu institut na xalqaro huquq, na milliy qonunchilik uchun yangilik emas: majburiy litsenziya berish imkoniyati Oʻzbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonunida 2024-yildan ancha oldin mustahkamlangan edi. Muammo huquqning oʻzida emas, balki uni amalga oshirish tartibining yoʻqligida edi: na qonun, na boshqa biror normativ hujjat tegishli talabni berish tartibini ham, uni koʻrib chiqish muddatlarini ham belgilamagan, patent egasiga toʻlanadigan mukofotni aniqlash metodikasini esa umuman oʻrnatmagan edi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 15-fevraldagi OʻRQ-908-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti (JST) bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda

tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuni [1] ixtirolar toʻgʻrisidagi qonunni 111-modda bilan toʻldirib, ushbu boʻshliqning bir qismini yopdi. Shu paytdan boshlab masala “tartib mavjudmi” degan tekislikdan “joriy etilgan tartib qanchalik samarali” degan tekislikka koʻchdi.

Amaldagi tahrirga koʻra, patent egasi sanoat mulki obyektidan patent roʻyxatga olingan sanadan boshlab uch yil (yoki talabnoma berilgan sanadan boshlab toʻrt yil; bu formula Sanoat mulkini muhofaza qilish toʻgʻrisidagi Parij konvensiyasining 5A(4)-moddasiga borib taqaladi) mobaynida foydalanmagan yoki yetarli darajada foydalanmagan taqdirda, litsenziya olishni istagan shaxs patent egasiga maqbul tijorat shartlarida litsenziya shartnomasi tuzish taklifi bilan murojaat qilishga haqli. Patent egasi rad etgan taqdirda, majburiy litsenziya berish talabi bilan sudga murojaat qilishga bunday taklif yuborilgan sanadan e'tiboran ikki oy oʻtgach yoʻl qoʻyiladi. Sud foydalanish hajmi va muddatini, shuningdek patent egasiga toʻlanadigan mukofotning miqdori, muddatlari va tartibini belgilaydi. (111-moddaning matnida “toʻlov” atamasi qoʻllaniladi, maqolada bundan keyin u “mukofot” atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi); mukofot amaliyotga muvofiq aniqlanadigan litsenziyaning bozor qiymatidan kam boʻlmasligi lozim. Litsenziya nomutlaq hisoblanadi va uni berishga asos boʻlgan holatlar barham topgan taqdirda sud tomonidan bekor qilinishi lozim [2].

Oʻzbekiston qonunchiligida majburiy litsenziyalash institutining huquqiy asoslari va uni qoʻllash tartibining belgilanishi mazkur mexanizmning amaliy samaradorligini baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa majburiy litsenziyalashning huquqiy mohiyati, patent egasining mutlaq huquqlari va jamoat manfaatlari oʻrtasidagi nisbat, shuningdek, litsenziya berish shartlarini aniqlash masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy va milliy olimlarning ushbu institutga aloqador ilmiy qarashlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Geertrui Van Overwalle va Amandine Léonardning ilmiy yondashuvlarida intellektual mulk huquqlari, raqobat va jamoat manfaatlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik alohida oʻrin tutadi. Ularning qarashlari majburiy litsenziyalashni patent huquqi doirasidagina emas, balki kengroq iqtisodiy va huquqiy munosabatlar nuqtayi nazaridan ham baholash zarurligini koʻrsatadi [3]. Cynthia M. Ho esa majburiy litsenziyalash masalasini xalqaro huquqiy normalar va ijtimoiy siyosat maqsadlari bilan bogʻliq holda oʻrganadi. Ushbu yondashuv mazkur institutning samaradorligini baholashda huquqiy normalarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularning amaliy natijalarini ham hisobga olish lozimligini anglatadi [4].

Milliy huquqshunos olimlarimizdan biri Omonboy Okyulovning intellektual mulk huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishga oid ilmiy qarashlari ham ushbu institutni milliy huquqiy doktrina doirasida oʻrganish uchun ahamiyatlidir [5]. Uning intellektual mulk

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

huquqlarini huquqiy himoya qilishga doir tadqiqotlari ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarning oʻrnini anglashga yordam beradi. Bizning nazarimizda, majburiy litsenziyalash institutining samaradorligi, avvalo, uni qoʻllash asoslarining aniqligi, sud tomonidan litsenziyaning hajmi va muddatini belgilash mezonlari hamda patent egasiga toʻlanadigan mukofotning asosli hisoblanishiga bogʻliq. Ayniqsa, litsenziya uchun toʻlanadigan mukofotni belgilashda uning bozor qiymatini hisobga olish patent egasining manfaatlarini himoya qilish bilan birga, litsenziya oluvchi uchun ham huquqiy aniqlikni ta'minlaydi. Shu sababli majburiy litsenziyalash institutini takomillashtirishda huquq egasining mutlaq huquqlari, jamoat manfaatlari va litsenziya oluvchining qonuniy ehtiyojlari oʻrtasidagi muvozanatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlardan kelib chiqib, majburiy litsenziyalash institutining samaradorligini baholashda nafaqat uning milliy qonunchilikda mustahkamlanganligi, balki belgilangan tartibning xalqaro standartlarga muvofiqligi va amaliy jihatdan qay darajada ishlashini ham hisobga olish lozim. Oʻzbekiston qonunchiligiga 2024-yilda kiritilgan oʻzgartirishlar majburiy litsenziya berish tartibiga oid ilgari mavjud boʻlgan huquqiy boʻshliqni qisman bartaraf etdi. Endilikda asosiy masala ushbu tartibning xalqaro huquqiy talablarga qanchalik mos kelishi va uning samarali qoʻllanishini ta'minlovchi mexanizmlarning yetarliligidan iborat. Mazkur masalani baholashda Jahon savdo tashkilotining Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bogʻliq jihatlari toʻgʻrisidagi bitimi (TRIPS) 31-moddasi muhim mezon hisoblanadi. Ushbu modda patent egasining roziligisiz patent obyektidan foydalanishga ruxsat berish shartlarini belgilaydi. Milliy qonunchilikni mazkur talablar bilan qiyosiy tahlil qilishda, xususan, patent egasi bilan maqbul tijorat shartlarida kelishishga oldindan urinish (b kichik bandi), litsenziyaning hajmi va muddatini belgilangan maqsad bilan cheklash (c kichik bandi), uning nomutlaq xususiyatini ta'minlash (d kichik bandi), patent egasiga tegishli haq toʻlash (h kichik bandi), shuningdek, litsenziya berish va mukofot miqdoriga doir qarorlarni sud yoki boshqa mustaqil organ tomonidan qayta koʻrib chiqish (i va j kichik bandlari) talablari alohida ahamiyatga ega [6]. Oʻzbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonuniga kiritilgan 111-modda ushbu talablarning asosiy qismini oʻzida aks ettiradi. Jumladan, patent egasiga maqbul tijorat shartlarida litsenziya shartnomasini tuzish taklifini yuborish va rad javobidan keyin ikki oy oʻtgach sudga murojaat qilish imkoniyati TRIPS bitimining 31-moddasi (b) kichik bandida nazarda tutilgan oldindan kelishishga urinish talabiga mos keladi. Shuningdek, litsenziyaning nomutlaq ekanligi, undan foydalanish hajmi va muddatining sud tomonidan belgilanishi hamda patent egasiga toʻlanadigan mukofotning litsenziyaning bozor qiymatidan kam boʻlmasligi haqidagi qoidalar tegishli xalqaro standartlarning milliy

qonunchilikda aniq ifodalanganini koʻrsatadi. Shu bilan birga TRIPS bitimining 31-moddasi (i) va (j) kichik bandlarida nazarda tutilgan qarorlarni mustaqil yuqori turuvchi organ tomonidan qayta koʻrib chiqish talabi alohida e'tiborga loyiq. Majburiy litsenziya berish masalasining sud vakolatiga kiritilganligi mazkur talabning oʻz-oʻzidan ta'minlanganligini anglatmaydi. Ushbu talabning bajarilishi 111-modda asosida qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish va ularni yuqori turuvchi sud instansiyasida qayta koʻrib chiqish imkoniyati bilan bogʻliq. Mazkur masala 111-moddada alohida qayd etilmaganligi sababli, uning huquqiy tartibga solinish darajasini baholashda tegishli protsessual normalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 111-moddaning tobe patentlarni majburiy litsenziyalashga oid 4–6-qismlari mazkur tahlil doirasiga kiritilmaydi. Bunday holatlarni tartibga solish uchun TRIPS bitimining 31-moddasi (l) kichik bandida alohida va yanada qat'iy talablar nazarda tutilgan. Shu sababli, 111-moddaning ushbu qismlarini xalqaro standartlarga muvofiqlik nuqtayi nazaridan baholash mustaqil tadqiqot mavzusi boʻlib, mazkur maqolada koʻrib chiqilmaydi.

Rasmiy muvofiqlikning oʻzi mazmuniy muvofiqlikni anglatmaydi. Milliy tartibning amaliy samaradorligini baholashda, avvalo, ikkita zaif jihatga e'tibor qaratish lozim. 111-modda asosida shakllangan sud amaliyoti mavjud emasligi sababli, ushbu jihatlarga beriladigan baho amaliyotda aniqlangan kamchiliklar tahliliga emas, balki doktrinal prognozga asoslanadi. Norma ikki yildan ortiq vaqt davomida amal qilayotgan boʻlsa-da, ochiq manbalarda uni qoʻllashga oid sud amaliyoti aniqlanmagan.

Birinchi zaif jihat shartnoma tuzishdan oldingi muzokaralar uchun belgilangan muddat bilan bogʻliq. Qonunchilikda litsenziya obyektining murakkabligi va muzokaralarning xususiyatidan qat'i nazar, patent egasining taklifiga javob berish va sudga murojaat qilish bilan bogʻliq muddatlar qat'iy belgilangan. TRIPS bitimining 31-moddasi (b) kichik bandi litsenziya olish uchun oldindan muzokara olib borishni talab qiladi, biroq bu jarayonning aniq davomiyligini kunlar yoki oylar bilan belgilamaydi. Shu jihatdan, muddatni belgilash milliy qonun chiqaruvchining ixtiyoriga qoldirilgan.

Ikki oylik muddat murakkab texnologiyalarga oid litsenziya muzokaralari uchun har doim ham yetarli boʻlmasligi mumkin. Chunki bunday muzokaralar oddiy tijorat shartnomasini tuzishdan farqli ravishda, beriladigan huquqlarning hajmini aniqlash, taraflarning oʻzaro majburiyatlarini kelishish va ayrim hollarda texnik hujjatlarni muvofiqlashtirishni talab qiladi. Biroq qonunchilikda ushbu muddatni taraflarning kelishuviga koʻra uzaytirish imkoniyati nazarda tutilmagan. Shu sababli, belgilangan muddatning amaliy jihatdan yetarliligi masalasi yuzaga keladi. Mazkur holatning amaliyotga qanchalik ta'sir koʻrsatishini faqat huquqni qoʻllash tajribasi asosida aniqlash mumkin. 111-modda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

boʻyicha bunday amaliyot hozircha aniqlanmaganligi sababli, ushbu mulohaza empirik xulosadan koʻra doktrinal prognoz xususiyatiga ega.

Ikkinchi va yanada jiddiy zaif jihat patent egasiga toʻlanadigan mukofotni hisoblash metodikasining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi bilan bogʻliq. Qonundagi mukofot miqdori “amaliyotga muvofiq belgilanadigan litsenziyaning bozor narxidan kam boʻlmasligi” kerakligi haqidagi qoida hisoblash usulini ham, qaysi amaliyot mezon sifatida olinishi lozimligini ham aniq belgilamaydi. Natijada sud oldida litsenziyaning bozor qiymatini aniqlash vazifasi yuzaga keladi, biroq qonunchilikda bu jarayon uchun aniq hisoblash mezonlari nazarda tutilmagan. Bu holat bir-biriga oʻxshash vaziyatlarda haq miqdorini belgilash boʻyicha turlicha yondashuvlar shakllanishi xavfini yuzaga keltirishi mumkin.

Xorijiy tajriba litsenziya uchun toʻlanadigan haqni aniqlashda muayyan metodik yondashuvlardan foydalanish mumkinligini koʻrsatadi. Jumladan, Fabrikat (Nottingham) Ltd v Stewart ishida Buyuk Britaniya Patent idorasi yoʻl infratuzilmasida qoʻllaniladigan piyodalar uchun himoya toʻsigʻiga oid ixtirodan foydalanish uchun royalti miqdorini belgilagan. Mazkur ixtiro sogʻliqni saqlash yoki boshqa ijtimoiy jihatdan sezgir sohalarga taalluqli boʻlmagan oddiy tijorat obyektiga oid edi. Idora mexanik ixtirolar uchun sof sotuvlarning 5-7 foizini boshlangʻich mezon sifatida olgan, soʻng taqqoslanadigan litsenziyalar va ishning oʻziga xos holatlarini hisobga olib, stavkani 10 foizgacha oshirgan [7].

Ushbu misolning ahamiyati muayyan foiz stavkasini barcha holatlarda qoʻllash zaruratida emas, balki litsenziya mukofotini belgilashda boshlangʻich tarmoq mezonidan foydalanish va uni konkret ishning xususiyatlariga qarab tuzatish imkoniyatidadir.

Bizning fikrimizcha, bunday yondashuv Oʻzbekiston qonunchiligida majburiy litsenziya uchun toʻlanadigan haqni aniqlash metodikasini ishlab chiqishda foydali tajriba boʻlishi mumkin. Bunda xorijiy tajribani toʻliq koʻchirib olish emas, balki uning hisoblash mezonlarini belgilashga oid jihatlarini milliy huquqiy tizim xususiyatlariga moslashtirish muhimdir.

Shu bilan birga, ingliz huquqidagi mazkur litsenziyalash mexanizmining huquqiy asosi Oʻzbekiston qonunchiligidagi majburiy litsenziyalashdan farq qiladi. U patentdan foydalanmaslik holatiga asoslangan umumiy majburiy litsenziyalash mexanizmi emas, balki oʻtish davri patentlariga oid alohida litsenziyalash institutidir. Shu sababli, mazkur ishda litsenziya berish asosini emas, balki royalti miqdorini aniqlashda qoʻllangan metodik yondashuvni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Majburiy litsenziyalash institutining amaliy qoʻllanilishini koʻrsatuvchi yana bir misol Hindiston tajribasidir. Ushbu davlatda majburiy litsenziya berish uchun foydalanmaslik yagona asos hisoblanmaydi, biroq mazkur asos qonunchilikda nazarda tutilgan. Bayer Corporation v. Union of India and Others ishida Patentlar boʻyicha nazoratchi Natco Pharma kompaniyasiga saratonga

qarshi sorafenib preparatidan foydalanish uchun majburiy litsenziya bergan. Royalti miqdori sog‘liqni saqlash sohasidagi majburiy litsenziyalash holatlari uchun BMT Taraqqiyot dasturi tavsiya etgan 4 foizlik bazaviy stavkadan kelib chiqib, litsenziatning sof sotuvlaridan 6 foiz miqdorida belgilangan. Shikoyat ko‘rib chiqilganda Hindistonning Intellektual mulk bo‘yicha apellyatsiya kengashi (IPAB) royalti stavkasini 7 foizgacha oshirgan, Bombay Oliy sudi esa 2014-yilda qarorni o‘zgarishsiz qoldirgan [8].

Mazkur ishning ahamiyati belgilangan royalti stavkasini O‘zbekiston qonunchiligiga bevosita tatbiq etishda emas, balki majburiy litsenziyalash institutining amalda qo‘llanilishi va mukofot miqdori yuzasidan mazmunli sud nizosigacha yetib borishida namoyon bo‘ladi. Hindiston qonunchiligidagi tartib O‘zbekiston modelidan farq qiladi: Hindistonning 1970-yilgi Patent qonuni 84(1)-moddasida majburiy litsenziya berishning uchta muqobil asosi nazarda tutilgan, shuningdek, qarorlar bir necha bosqichda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. BMT Taraqqiyot dasturi tavsiya etgan stavka esa sog‘liqni saqlash sohasiga xosdir. Shu sababli, mazkur tajribadan olinadigan asosiy xulosa muayyan foiz stavkasini ko‘chirib olish emas, balki majburiy litsenziyalash institutining amaliy ishlashi va mukofot miqdorini belgilash masalasining sud tartibida ko‘rib chiqilishi mumkinligidir.

Majburiy litsenziyalashning Germaniya modeli ham milliy tartibni baholashda muayyan mezon sifatida ahamiyatga ega. Biroq Germaniya tajribasi O‘zbekistonda tartibni noldan shakllantirish uchun emas, balki amaldagi mexanizmni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash uchun foydalidir. Germaniya Patent qonunining 24-§ va 85-§ normalarida majburiy litsenziyalash va tegishli protsessual masalalar tartibga solingan. Shu jihatdan, Raltegravir ishi (Germaniya Federal Adliya sudi, X ZB 2/17, 2017-yil 11-iyul) alohida e'tiborga loyiq.

Mazkur ishning faktik holatlari O‘zbekiston modeliga to‘liq mos kelmaydi. Nizo patent egasi bilan jenerik dori ishlab chiqaruvchisi o‘rtasida emas, balki mustaqil ravishda tadqiqot olib borgan ikki original preparat ishlab chiqaruvchi kompaniya – Merck va Shionogi o‘rtasida yuzaga kelgan. Majburiy litsenziyalash masalasida patent egasining ixtirodan foydalanmaganligi emas, balki ikki patentning to‘qnashuvi sharoitida bemorlarning bozorda mavjud preparatdan foydalanish imkoniyatini saqlab qolish bilan bog‘liq jamoat manfaati muhim o‘rin tutgan.

Shunga qaramay, mazkur ishda qo‘llangan protsessual yondashuv e'tiborga loyiq. Federal patent sudi majburiy litsenziya olish huquqi masalasini litsenziya uchun to‘lanadigan mukofot miqdorini aniqlash masalasidan ajratgan va mukofotning yakuniy miqdori belgilanishidan oldin patent obyektidan foydalanishga vaqtinchalik ruxsat bergan. Germaniya Federal Adliya sudi ushbu qarorni o‘zgarishsiz qoldirgan [9]. Mazkur ishning ushbu maqola uchun ahamiyati uning faktik asoslarining O‘zbekiston qonunchiligiga mosligida emas, balki litsenziya olish huquqi va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

litsenziya uchun to‘lanadigan mukofot miqdorini aniqlash masalalarini protsessual jihatdan ajratish imkoniyatini namoyon etishida hisoblanadi.

Hindiston va Germaniya tajribasi majburiy litsenziyalash institutining turli jihatlarini ochib beradi. Hindiston misoli majburiy litsenziyaning amalda qo‘llanilishi va royalti miqdori yuzasidan nizoning sud bosqichlarida ko‘rib chiqilishini ko‘rsatsa, Germaniya tajribasi litsenziya berish huquqi bilan uning moliyaviy shartlarini aniqlash masalalarini alohida ko‘rib chiqish imkoniyatini namoyon etadi. Mazkur tajribalar O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda bevosita ko‘chiriladigan tayyor modellar sifatida emas, balki litsenziya haqini belgilash mezonlarini ishlab chiqish va protsessual mexanizmlarni takomillashtirish uchun qiyosiy-huquqiy manba sifatida ahamiyatlidir.

Milliy qonunchilikda litsenziyadan foydalanish huquqi va litsenziya uchun to‘lanadigan mukofot miqdorini belgilash masalalari alohida tartibda hal etilmaydi. Natijada litsenziya talab qilayotgan shaxs obyektdan qonuniy foydalanishni boshlashdan oldin sud tomonidan ham foydalanish shartlari va hajmi, ham mukofot miqdori belgilanishini kutishga majbur bo‘ladi. Ishlarni ko‘rib chiqish muddatlari aniq belgilanmagan sharoitda, patent egasining muzokaralardan bosh tortishini bartaraf etishga qaratilgan ushbu mexanizm muzokaralarning o‘zidan ham ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin. Bu esa majburiy litsenziyalash institutining amaliy samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatish xavfini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi tahlillarni hisobga olgan holda, amaldagi 111-moddani yangi norma bilan almashtirishdan ko‘ra, undagi ikki asosiy zaif jihatni hamda litsenziyadan foydalanishni kechiktirishi mumkin bo‘lgan protsessual kamchilikni bartaraf etishga qaratilgan aniq o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, shartnomaoldi muzokaralari uchun belgilangan muddatni barcha holatlarda o‘zgarmas ikki oy bilan cheklash o‘rniga, litsenziya predmetining texnik murakkabligini ham hisobga olish lozim. Bunda umumiy ikki oylik muddat saqlab qolinishi, biroq litsenziya predmeti texnik hujjatlarni o‘rganish va muvofiqlashtirishni talab qilgan hollarda, majburiy litsenziya talab qilayotgan shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra, sudga ushbu muddatni to‘rt oygacha uzaytirish vakolati berilishi mumkin.

Muddatni uzaytirish huquqini patent egasiga emas, aynan majburiy litsenziya talab qilayotgan shaxsga berish taklifi muayyan protsessual mantiqqa asoslanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ikki oylik muddat tugagach, sudga murojaat qilish huquqi patent egasiga emas, balki majburiy litsenziya talab qilayotgan tarafga tegishlidir. Shu sababli muzokaralarni yakunlash tashabbusi va sudga murojaat qilish imkoniyati aynan shu tarafga tegishli ekan, muddatni uzaytirish mexanizmini ham uning iltimosnomasiga bog‘lash maqsadga muvofiq. Patent egasi esa qonun bo‘yicha muayyan muddat ichida muzokaralarni yakunlashga majbur

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

etilmagan. Agar muzokaralar vijdonan davom etayotgan bo‘lsa, unga qo‘shimcha vaqt so‘rashga boshqa taraf bilan kelishuv orqali erishish imkoniyati ham mavjud.

Biroq bunday yondashuv muzokaralar muddatiga oid muammoni to‘liq bartaraf etmaydi. Agar murakkab texnik hujjatlarni o‘rganish uchun qo‘shimcha vaqt aynan patent egasiga zarur bo‘lsa, litsenziya talab qilayotgan taraf esa sudga murojaat qilishga shoshilsa, patent egasida muddatni bir tomonlama uzaytirish imkoniyati bo‘lmaydi. Bunday vaziyatda u, asosan, ikkinchi tarafning muzokaralarni vijdonan olib borishiga tayanishga majbur bo‘ladi.

Mazkur muammoni sudning muzokaralar jarayoni faqat muddat tugashini kutish bilan cheklanganmi yoki tomonlar o‘rtasida haqiqiy muzokaralar olib borilganmi, degan masalani baholashda hisobga olishi orqali yumshatish mumkin. Biroq bu yondashuv amaldagi 111-modda bilan sudga bevosita berilgan vakolat sifatida emas, balki muallif taklif qilayotgan ehtimoliy talqin yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim. Chunki moddaning amaldagi matni ikki oylik muddatning o‘tishini alohida ahamiyatga ega holat sifatida belgilaydi, taraflarning muzokaralardagi vijdonliligini mazmunan baholash mezonlarini esa aniq ifodalamaydi.

Shu bilan birga, bunday mezonni qonun matnida batafsil belgilamasdan sud ixtiyoriga qoldirish ham maqsadga muvofiq emas. Aks holda, mukofot miqdorini aniqlash masalasida tanqid qilinganidek, sud qarorlari uchun yetarlicha aniq qonunchilik mezonlari mavjud bo‘lmagan sharoitda sudyalik ixtiyorining haddan tashqari kengayishi xavfi yuzaga keladi. Shu sababli muzokaralarning vijdonan olib borilganini baholash masalasi hozircha alohida qonunchilik taklifi sifatida emas, balki kelgusidagi sud amaliyoti rivojlanishining ehtimoliy yo‘nalishi sifatida qaralishi mumkin.

Patent egasiga ham muddatni uzaytirish bo‘yicha simmetrik huquq berish esa maqbul yechim hisoblanmaydi. Chunki bu patent egasiga muzokaralarni cho‘zish uchun qonuniy imkoniyat yaratib, majburiy litsenziya talab qilayotgan shaxsni noaniq muddat davomida kutishga majbur etishi mumkin. Holbuki, mazkur normaning asosiy vazifalaridan biri patent egasining muzokaralardan bosh tortishi natijasida litsenziya olish jarayoni asossiz ravishda cho‘zilib ketishining oldini olishdan iborat.

Ikkinchidan, majburiy litsenziya uchun to‘lanadigan mukofot miqdorini belgilashga oid normani hech bo‘lmaganda umumiy metodik mezonlar bilan to‘ldirish zarur. Sudni faqat “amaliyotga muvofiq” degan ochiq ifodaga tayanishga majbur qilish o‘rniga, taqqoslanadigan toifadagi sanoat mulki obyektlari uchun shakllangan o‘rtacha tarmoq litsenziya stavkasini boshlang‘ich mezon sifatida qo‘llash mumkin. Bunda sud muayyan ishning holatlari, jumladan, litsenziya predmetining xususiyatlari va foydalanish shartlarini hisobga olgan holda tegishli stavkani tuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Muqobil yondashuv

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

sifatida, mukofotni hisoblash tartibini vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan metodik hujjat orqali belgilash ham mumkin. Har ikki holatda ham asosiy maqsad sud qarorlarining izchilligini ta'minlash va mukofot miqdorini belgilashda foydalaniladigan mezonlarni oldindan tushunarli qilishdan iborat.

Uchinchidan, Germaniya tajribasidan kelib chiqib, litsenziyadan foydalanish huquqini berish masalasi bilan mukofotning yakuniy miqdorini aniqlash jarayonini protsessual jihatdan ajratish imkoniyatini koʻrib chiqish lozim. Amaldagi tartibda ushbu masalalarning bir vaqtda hal etilishi mukofot miqdori boʻyicha nizo mavjud boʻlgan taqdirda ham obyektdan foydalanishni kechiktirishi mumkin. Shu sababli qonunchilikda sudga mukofotning yakuniy miqdori aniqlanguniga qadar obyektdan vaqtinchalik foydalanishga ruxsat berish imkoniyatini nazarda tutish maqsadga muvofiq. Bunday mexanizm litsenziya uchun toʻlanadigan mukofotni belgilash jarayoni obyektdan foydalanishning oʻzini asossiz ravishda toʻsib qoʻyishiga yoʻl qoʻymaslikka xizmat qilishi mumkin. Bunda vaqtinchalik foydalanish shartlari hamda yakuniy mukofot belgilangach, taraflarning moliyaviy majburiyatlarini aniqlashtirish tartibi qonunchilikda yetarlicha aniq ifodalanishi lozim.

Umuman olganda, taklif etilayotgan oʻzgartirishlar amaldagi majburiy litsenziyalash mexanizmini tubdan qayta qurishni emas, balki uning amaliy samaradorligini oshirishni koʻzda tutadi. Shartnomaoldi muzokaralari muddatini texnik murakkablikni hisobga olgan holda uzaytirish, mukofot miqdorini belgilashning metodik asoslarini yaratish hamda mukofot yuzasidan yakuniy qaror qabul qilinishidan oldin vaqtinchalik foydalanish imkoniyatini nazarda tutish orqali patent egasining huquqlari va majburiy litsenziya talab qilayotgan shaxsning qonuniy manfaatlari oʻrtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkin.

Taklif etilayotgan uchinchi yechimni qoʻllashda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan yana bir xavfni ham oldindan hisobga olish lozim. Agar mukofot faqat sudning yakuniy qarori qabul qilingan paytdan boshlab hisoblansa, litsenziat obyektdan vaqtinchalik ruxsat asosida foydalanish davrida uni amalda bepul ishlatish imkoniyatiga ega boʻlishi mumkin. Bu esa mukofot miqdori yuzasidan nizoni tezroq hal qilishdan manfaatdor boʻlmaslik uchun ragʻbat yaratishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Mazkur xavfni bartaraf etish uchun sud tomonidan yakuniy belgilangan mukofot vaqtinchalik ruxsat berilgan sanadan boshlab hisoblanishini qonunchilikda bevosita mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv vaqtinchalik foydalanish imkoniyatini saqlab qolgan holda, litsenziatning mukofot miqdorini aniqlash jarayonini asossiz choʻzishdan manfaatdor boʻlib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqorida asoslantirilgan takliflarni jamlagan holda, Oʻzbekiston Respublikasi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonunining 111-moddasiga quyidagi mazmundagi

qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi:

“Sud majburiy litsenziya talab qilayotgan shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra, agar litsenziya predmeti texnik hujjatlarni muvofiqlashtirishni talab qilsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ikki oylik muddatni to‘rt oygacha uzaytirishga haqli.

Patent egasiga to‘lanadigan mukofot miqdori sud tomonidan taqqoslanadigan toifadagi obyektlar uchun shakllangan o‘rtacha tarmoq litsenziya stavkasi hisobga olingan holda yoki vakolatli organ tomonidan belgilangan tartib asosida aniqlanadi.

Mukofot miqdori yakuniy aniqlanguniga qadar sud majburiy litsenziya talab qilayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra, sanoat mulki obyektidan vaqtinchalik foydalanishga ruxsat berishga haqli. Sud tomonidan yakuniy belgilangan mukofot vaqtinchalik ruxsat berilgan sanadan boshlab hisoblanadi”.

Taklif etilayotgan o‘zgartirishlar O‘RQ-908-son Qonun bilan joriy etilgan huquqiy mexanizmni inkor etmaydi, balki uning amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ular, ayniqsa, amaldagi tartib sud amaliyotida qo‘llanila boshlaganida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan hisobga olish imkonini beradi. Bunda qonunchilikni takomillashtirishning asosiy maqsadi mavjud mexanizmni qayta qurish emas, balki uning samarali ishlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan jihatlarni bartaraf etishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, O‘RQ-908-son Qonun bilan 2024-yilda kiritilgan 111-modda majburiy litsenziyalash huquqini amalga oshirish tartibini belgilash orqali avvalgi qonunchilikdagi muhim protsessual bo‘shliqni to‘ldirdi. Amaldagi tartibning TRIPS bitimi 31-moddasi talablariga umumiy muvofiqligi uning xalqaro standartlar bilan uyg‘unligini ko‘rsatsa-da, bu holatning o‘zi mexanizmning amaliy samaradorligini kafolatlamaydi. Xususan, shartnomaoldi muzokaralari uchun belgilangan qat'iy ikki oylik muddatning barcha holatlarga bir xil tatbiq etilishi va mukofot miqdorini hisoblash metodikasining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi majburiy litsenziyalash mexanizmining samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Taklif etilgan o‘zgartirishlar ushbu muammolarni uch yo‘nalishda hal etishga qaratilgan: birinchidan, texnik jihatdan murakkab litsenziya predmetlari bo‘yicha muzokaralar muddatini asoslantirilgan iltimosnoma asosida uzaytirish; ikkinchidan, mukofot miqdorini belgilash uchun tushunarli metodik mezonlarni joriy etish; uchinchidan, mukofotning yakuniy miqdori aniqlanguniga qadar sanoat mulki obyektidan vaqtinchalik foydalanishga ruxsat berish va yakuniy mukofotni ushbu ruxsat berilgan sanadan boshlab hisoblash imkoniyatini yaratish. Germaniya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilingan vaqtinchalik foydalanish mexanizmi litsenziyadan foydalanish huquqini amalga oshirishni moliyaviy shartlar bo‘yicha nizoning yakunlanishiga to‘liq bog‘lab qo‘ymaslikka xizmat qilishi mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, majburiy litsenziyalash institutining samaradorligi faqat qonunchilikda tegishli huquqning e'tirof etilishi bilan emas, balki ushbu huquqni oqilona muddatlarda va aniq mezonlar asosida amalga oshirish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shu bois 111-moddani taklif etilgan yoʻnalishlarda takomillashtirish patent egasining manfaatlari bilan bir qatorda, sanoat mulki obyektidan foydalanishga qonuniy ehtiyoj sezayotgan shaxslarning manfaatlarini ham samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 15-fevraldagi OʻRQ-908-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuni. URL: https://lex.uz/ru/docs/6800328.

2. Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 15-fevraldagi OʻRQ-908-son Qonuni, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonunning 11^1-moddasi. URL: https://lex.uz/ru/docs/6800328.

3. Van Overwalle, G., & Léonard, A. (2023). The Public Interest in Compulsory Licensing: Examining the Complementarity Between IP and Competition Law. In A Critical Mind: Hanns Ullrich's Footprint in Internal Market Law, Antitrust and Intellectual Property (pp. 331–365). Springer. URL https://doi.org/10.1007/978-3-662-65974-8_14

4. Ho, C. M. (2014). A New Approach to the Compulsory License Conundrum. In Patent Law in Global Perspective (pp. 485–514). Oxford University Press. URL: https://academic.oup.com/book/8396/chapter-abstract/154160588

5. Okyulov, O. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlar va qonuniy manfaatlarni sud orqali himoya qilish institutsional va huquqiy tizimining mohiyati, zaruriyati va umumiy tavsifi. Toshkent davlat yuridik universiteti. URL: https://jurisprudence.tsul.uz/wp-content/uploads/2023/03/Okyulov-Omonboy.pdf

6. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). Article 31, (b), (c), (d), (h), (i), (j) kichik bandlari. URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips_04c_e.htm.

7. UK Intellectual Property Office. Decision O/150/94: Fabrikat (Nottingham) Ltd v Stewart (Patent No. 1585498), Patents Act 1977 ning 46(3)-seksiyasiga koʻra huquq boʻyicha litsenziya (licence of right) shartlarini belgilash toʻgʻrisidagi ariza, tinglov 1994-yil 7-oktabrda boʻlib oʻtgan, qaror 1994-yil 10-noyabrda chiqarilgan. Aynan: “It is not disputed that royalty rates for “mechanical” inventions, into which general category the present invention falls, have often been set in the 5% to 7% range, though rates a few percent above this have been set where there were special circumstances to warrant it”; yakuniy stavka taqqoslanadigan litsenziyalar (Logan, Alpha) va ishning alohida holatlarini hisobga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

olgan holda Net Sales Value ning 10% miqdorida belgilangan. URL: https://assets.publishing.service.gov.uk/media/5a7f5e92ed915d74e622a0b7/O-150-94.pdf. Patent piyodalar uchun himoya to‘sig‘iga (yo‘l infratuzilmasi) taalluqli, obyekt sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq emas. “Huquq bo‘yicha litsenziya” instituti foydalanmaslik asosidagi majburiy litsenziyadan farq qiladi: bu Patents Act 1977 ning 1-jadvaliga ko‘ra o‘tish davri patentlari uchun alohida mexanizm, biroq stavkani aniqlash metodikasi (tarmoq mo‘ljali va ish holatlariga ko‘ra tuzatish) taqqoslanadi.

8. Bayer Corporation v. Union of India and Others, High Court of Judicature at Bombay, Writ Petition No. 1323 of 2013, 2014-yil 15-iyuldagi qaror (IPABning 2013-yil 4-martdagi qaroriga shikoyat rad etilgan). Aynan: «the United Nation[s] Development Programme specifically recommended that the normal rate of royalty should be 4% which has been further adjusted to 6% of the net sale by the Controller»; «the Tribunal has increased the royalty from 6 to 7%. of net sales by Natco». URL: https://www.globalhealthrights.org/wp content/uploads/2015/11/Natco-v-Bayer.pdf.

9. BGH, Urteil vom 11.07.2017 – X ZB 2/17 – Raltegravir, BGHZ 215, 214. URL: https://rewis.io/urteile/urteil/qgj-11-07-2017-x-zb-217/.